

PAPER

ONA TILI TA'LIMIDA YOZMA ISH TURLARI VA ULAR USTIDA ISHLASHGA OID ILMIY-METODIK QARASHLAR TAHLILI

Rabbimova Xamida Yoqubovna ^{1,*}

¹Samarqand davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti fakulteti, 2-bosqich magistranti

* minushrabbimova@gmail.com

Abstract

Mazkur maqolada ona tili darslarida o'quvchilarning yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari tahlil qilinadi. An'anaviy yozma ish turlari diktant, bayon, insho hamda esse va ularning zamonaviy ta'lim jarayonidagi o'rnini qiyosiy o'rganadi. Undan tashqari, jahon metodikasida e'tirof etilgan "jarayon yondashuvi" va "skaffolding" strategiyalarining ona tili ta'limidagi o'ziga xos imkoniyatlari ilmiy asoslab beriladi.

Key words: yozma nutq, metodika, diktant, bayon, insho, esse, kommunikativ kompetensiya, jarayon yondashuvi, kognitiv fikrlash, "skaffolding" strategiyasi.

KIRISH

Ta'lim tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak yozma nutq qadimdan hozirgacha insonlar o'rtasidagi axborot almashish vositasi, shu bilan birga, inson tafakkurini tizimlashtiruvchi va mantiqiy xulosalash qobiliyatini shakllantiruvchi oliy psixik funksiya bo'lib kelganligini ko'rishimiz mumkin. Zamonaviy ta'limda ona tili darslari tashkil etilar ekan, yozma ishlarni faqatgina nazorat ya'ni baholash maqsadida tashkil etish emas, balki o'quvchilarga o'z fikrlarini yozma shaklda to'g'ri, mustaqil va kreativ usulda ifodalashga o'rgatish

muhim vazifaga aylandi.

Milliy o'quv dasturi [1] talablariga muvofiq, ona tili fani nazariy bilimlar berishdan tashqari, nutqiy ko'nikmalarni (o'qib, tinglash, so'zlash va yozish) shakllantirishga yo'naltirildi. Avvalgi yillarda ona tili darslarida nazariya keng miqiyosda tatbiq qilingan bo'lsa, endilikda amaliyot va nazariya ta'limda teng miqdorda belgilandi. Ya'ni 50 % nazariya, 50% amaliyot. Bu esa o'quvchilarda egallangan bilimlarni amaliy jihatdan mustahkamlashni yuqori bosqichga chiqardi. Ushbu asosga ko'ra yozma ish turlari va ular ustida ishlash metodikasini qayta ko'rib chiqish, xalqaro tajriba

Compiled on: March 31, 2026.

Copyright: ©2026 by the authors. Submitted to Advances in Science and Education for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

va milliy an'analarni sintez qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

METODLAR

Ona tili metodikasida yozma ishlar murakkablik darajasiga ko'ra bir nechta turlarga bo'linadi. An'anaviy tasnifda, avvalo, diktant, bayon va insho asosiy turlarni tashkil qiladi. Zamonaviy metodika esa ularga qo'shimcha ravishda esse janrini tatbiq etadi. Ularning har birining yozma ishlarni tashkil qilishda o'z o'rnini mavjud, shu bilan birga, hozirgi ta'lim ularga qo'shimcha yangicha mazmunlar yuklamoqda. Yozma ishlarning oddiy ko'rinishi hisoblangan diktant o'quvchi savodxonligini baholaydi. Asosan, o'quvchilarda o'zlashtirilgan imlo va punktuatsion qoidalarni tekshiradi. Biroq, ilmiy-metodik tahlillar asosida shunday xulosaga kelish mumkin. Diktantning ham o'rgatuvchi, ham tushuntiruvchi hamda ijodiy yondashishga asos bo'luvchi xususiyatlari o'quvchining eshitish va ko'rish xotirasi o'rtasida integratsiya hosil qiladi. Bu esa o'quvchida idrok etish jarayonini savodxonlikdan leksik tahlilga olib chiqadi. Bayon o'quvchining eshitish orqali tayyor matn mazmunini xotirada saqlashni va uni o'zining so'zlari bilan qayta ifodalashni talab qiladi. Qisqa qilib aytganda, o'quvchi matnni ongida qayta ishlaydi. Bu jarayon o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi, 3 bosqichda kichadi. O'quvchi o'qib eshittirilgan matnni tahlil qiladi, undagi g'oyani anglaydi, qaytadan yozma bayon etadi. E'tiborli jihati shundaki, o'quvchi bayonni o'z qarashlariga ko'ra yo qisqartirib yuborishi, yoki kengaytirib yuborishi mumkin. Bu asosan, o'quvchidan xotira mahoratini talab qiladi. Matn qisqartirilganda diqqatsizlik bilan eshiltirilgan yoki fikrlar kamligi sabab mazmun to'liq aks ettirilmaganligi nomoyon bo'ladi. Matn kengaytirilganda bayonda aks etgan mazmundan tashqari unga yaqin mazmunli fikrlar bayon ichida aks ettirilganligini tushunish mumkin. Insho mustaqil ijodiy faoliyat sifatida hozirda adabiyot darslarida yoki adabiy asarlar tahlilini yoritishda qo'llaniladi. U orqali o'quvchining asarga bo'lgan ochiq munosabati bildiriladi. Ta'lim tizimida ko'proq badiiy uslubda aks etadi. Zamonaviy ta'limga oid "Esse" tushunchasi aslini olganda, inshoning bir bo'lagi. Esse erkin tushunchalar, daliliy mulohaza va shaxsiy qarashlarni himoya qilishga asoslanadi. Demak, yozma ishlarni

yo'zdirishda erkinlik alohida ahamiyat kasb etadi. "Writing for pleasure" [2] kitobida keltirilishicha, o'quvchilarga mavzu tanlash erkinligi berilganda, ularning yozma nutqga bo'lgan motivatsiyasi va akademik ko'rsatgichlari ijobiy tomonga o'zgarishini ko'rish mumkin. Chunki o'quvchilar o'zlari yaxshi biladigan hamda qiziqishlariga monand mavzuda yozganlarida o'z-o'zidan ularning yozishga bo'lgan ishtiyoqi keskin ortadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yozma ishlar ustida ishlash metodikasi ikki yondashuv asosida rivojlanib kelmoqda. Bularning birinchisi natijaga yo'naltirilgan yondashuv hisoblanadi. Bu asosan, o'quvchilarni yozma nutqqa o'rgatishdagi an'anaviy usullar sirasiga kiradi. Bunda asosiy e'tibor jarayonga emas, yozilgan tayyor matnga qaratiladi. Ya'ni, o'quvchilarga oldindan tayyorlangan matn, insho, esse yoki maktub namunasi hamda qanday yozish strukturasi taqdim etiladi, o'quvchi ana shu tuzilishni takrorlashi talab qilinadi. Bunda o'zgaradigan jihat mavzu nomlaridir. Namuna sifatida Milliy sertifikat imtihonida o'quvchilarning yozma nutqini baholashga qaratilgan esse yozish jarayonini keltirish mumkin. Tuzilma aniq, asosiy ko'rsatmalarga rioya qilish muhim, grammatik aniqlik talab qilinadi. Ushbu yondashuv bir qator kamchiliklarga ega. Eng asosiysi, bu yondashuvga binoan yozish jarayonida o'quvchi duch keladigan qiyinchiliklarni



e'tibordan chetda qoldiriladi.

Ikkinchi muhim jihat, jarayonga asoslangan yondashuv XX asrning oxirlaridan boshlab jahon metodikasida "yozish - bu jarayon" [3] degan qarash ustuvorlik kasb etdi. Unga ko'ra, yozma ishlar ustida ishlashda quyidagi bosqichlarni inobatga olish kerakligi ta'kidlandi. [4]

1-bosqich tayyorgarlik. G'oya topish, klaster tuzish, "aqliy hujum" usullari orqali mavzuni muhokama qilish.

2-bosqich qoralama. Fikrlarni qog'ozga tushirish, bunda grammatikaga chalg'imaslik talab qilinadi.

Ya'ni, o'quvchi fokusi faqat mazmunga qaratilishi kerak.

3-bosqich tahrirlash. Bunda faqatgina matn mazmuni qayta ko'rib chiqiladi, fikrlar qo'shiladi, mazmuniy bog'lanish hamda ketma-ketlik tekshiriladi.

4-bosqich tuzatish kiritish. Ushbu bosqichda grammatik me'yor, imlo, ishoraviy va uslubiy xatoliklarni tuzatishga e'tibor qaratiladi.

5-bosqich yakuniy bosqich hisoblanadi. Bunda o'quvchi tomonidan tayyor matn taqdim qilinadi yoki o'qib beriladi. Keltirilgan bosqichlar asosida yozishni o'rgatish o'quvchida "yozishdan qo'rqish" yoki "yaxshi yoza olmaslik" to'sig'ini yengishga yordam beradi.

Yozma ishlar yozishda o'quvchi mahoratini oshirishda "Skaffolding" [5] ya'ni bosqichma-bosqich qo'llab-quvvatlash usuli muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi o'quvchilardan yozma ish talab qilarkan, avvalo, uning o'zi mavzuni tahlil qilishi, o'quvchilar bilan hamkorlikda jamoaviy yoki guruhlarga bo'lingan holda matn yaratishi, yozish jarayoniga oid matnga javob topishga yordam, idea, fikr beradigan savollar berishi lozim. Undan tashqari, o'quvchilarning bir-birini yoki guruhlar asosida jamoaviy tekshirish usuli ham metodik jihatdan yuqori baholanadi. Bu orqali o'quvchi boshqa bir o'quvchining xatosini topish orqali tahrirlash ko'nikmasini shakllantiradi hamda yozma ishga nisbatan mas'uliyatni his qiladi. Ta'limdagi yana bir muhim jihat sifatida baholash tizimini keltirish mumkin. Baholashda faqat xatolar miqdoriga qarab baholamasdan, rubrika va cheklistlar yordamida baholash maqsadga muvofiqdir. Bunda yozilgan matn quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

- Mavzu va g'oyaning mutanosibligi
- Mantiqiy izchillik va aniqlikning aks etishi
- So'z boyligi va uslubiy rang-baranglik
- Grammatik va imloviy aniqlik

Bu yondashuv asosida o'quvchi yozishdagi xatoliklarni tuzatadi, o'zining kuchli va kuchsiz tomonlarini aniq belgilab oladi.

XULOSA

Ona tili ta'limida yozma ishlar ustida ishlashning ilmiy-metodik tahlili shuni ko'rsatadiki, an'anaviy metodlarni inkor etmagan holda, zamonaviy kompetensiyaviy va kommunikativ usullarni

qo'llash talab etiladi. Tezis natijalari asosida quyidagi tavsiyalar e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir. Dars jarayonida yozma ishlarga ajratilgan vaqtning muhim qismini tekshirishga emas, balki "mavzuni yozishga tayyorgarlik" va "tahrirlash jarayonining ahamiyatini singdirish" bosqichlariga yo'naltirish o'quvchining yozish mahoratini o'stiradi. Yozma ish mavzularini o'quvchining kundalik faoliyati va qiziqishlariga yaqinlashtirish masalan, "Maktabda o'quvchining mobil telefonlardan foydalanishning afzalliklari va zarari" yoki "Kitob va internet" nomli mavzularda yozishga tayyorlash sifatli yozishga o'z hissasini qo'shadi. Yana bir jihat baholashda jazo chorasidan ko'ra, o'quvchini rag'batlantiruvchi va rivojlantiruvchi baholash usullaridan foydalanish, ayniqsa, maktab tizimida muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, yozma ishlar o'quvchining faqatgina savodxonlik darajasini emas, balki uning ijodiy va intellektual qobiliyatining integrallashgan natijasidir. Ta'lim tizimida metodik qarashlarning doimiy yangilanib, rivojlanib borishi ona tili o'qitish sifatini jahon andozalari darajasiga olib chiqishning kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun Milliy o'quv dasturi. – Toshkent, 2021.
2. Young R., Ferguson F. The Writing For Pleasure Centre's Guide to Writing with Choice and Agency. – URL: <https://writing4pleasure.com> (Murojaat sanasi: 21.02.2026).
3. Murray D. M. Teach Writing as a Process, Not Product. The Leaflet. – National Council of Teachers of English (NCTE), 1972. – pp. 11-14.
4. Flower, L., & Hayes, J. R. (1981). A cognitive process theory of writing. *College Composition and Communication*, 32(4), 365-387.
5. Wood D., Bruner J. S., Ross G. The role of tutoring in problem solving // *Journal of Child Psychology and Psychiatry*. – 1976. – Vol. 17. – No 2. – pp. 89-100.